

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA  
YO'NALTIRISH MEHR-OQIBAT RAMZI.**

**Gaibnazarova Muqaddas Olimovna**

*Toshkent imkoniyati cheklangan  
shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan  
1-kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'lifi ustasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy xususiyatlari, ularning mazmun-mohiyati bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** *kasb-hunarlar, xususiyat, jarayon, yo'nalistish, salomatlik, qiziqish...*

Ma'lumki, o'quvchilarning kasb tanlashi o'qiga xos murakkab va qat'iy ketma ketlikda bo'ldigan jarayon bo'lib bu, jarayonga jiddiy yondashilsa ko'proq anglashilmovchilikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, kasb tanlashda barcha tanlovlardagi singari vaqt o'tib borishi bilan afzallikning o'zgarib borishi masalasi turadi. Ya'ni avval afzal deb topilgan tanlov vaqt o'tishi va ijtimoiy rivojlanish natijasida o'zining qimmatini o'zgartirib boradi. Ayniqsa, har bir insonning yoshi ulg'ayishi sari uning qiziqishlari o'zgarib boradi, natijada kasbga nisbatan tanlov ham vaqt o'tgan sari o'zgarishi mumkin. Zero, ta'lim jarayoni kasbiy va amaliy ko'nikmalar bilan birga o'quvchilar shaxsning shakllanishiga, ularning ijtimoiy moslashuviga va jamiyatga uyg'unlashuvuga ko'maklashadi. Jumladan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tanlagan kasblari bo'yicha o'qish muddati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limningining tegishli mutaxassisliklari va kasblari bo'yicha imkoniyatlari cheklangan shaxslar o'qishi uchun zarur va yetarli o'quv yuklamasining umumiyligi hajmi hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda tanlangan kasblarning soni va murakkabligi e'tiborga olinadi. O'quvchilarni kollejga qabul qilish ularning o'qish yo'nalistishlarini ixtiyoriy tanlashi hisobga olingan holda umumiyligi o'rta ta'lim negizida amalga oshiriladi. O'qishga qabul qilishda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mutaxassisliklari va kasblar ro'yxatiga muvofiq tibbiy tavsiyalar hisobga olinadi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni kasbga yo'naltirishning bir qancha muhim jihatlari va xususiyatlari mavjud:

-turli jismoniy va psixologik nuqsonlari bo'lgan bolalarning asosiy xususiyati guruh maslahatlaridan ko'ra individual maslahatlashuvlarning ustunligi;

**Kasb-hunarga yo'naltirsh - bu  
o'quvchilarning o'z kasbiy  
yo'nalishini aniq belgilab  
olishlariga ko'maklashishga  
qaratilgan kompleks  
psixologik-pedagogik  
chora-tadbirlar majmuidir.**

Bunday bolalar qat'iy individual va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi.

Bundan tashqari, faol kasbiy yo'nalishning bir xil darajada muhim tarkibiy qismi bu o'smirning o'zi bilan maslahatlashish istagi ham ahamiyatli. Shuning uchun, professional kelajak uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga intilish va istagini uyg'otish, shuningdek, mutaxassisning yordamini olish - bu kasbga yo'naltirish ishining eng muhim shartidir.

Samaradorlik haqida yana shuni alohida ta'kidlash joizki, unda nogironlarning ota-onalariga juda muhim rol berilishi kerak. Shuning uchun, guruh va individual kasbga yo'naltirish darslari nafaqat bolalar bilan bo'lishi kerak, balki ota-onalari bilan ham. Bolalarning ota-onalari bilan individual ishning asosi oila haqida ma'lumot olishdir, unda kayfiyat. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga yo'naltiradigan mutaxassis shuni bilishi kerakki, ota-onalarning pozitsiyasi qanday, ular bolaning kasbiy rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi? (ularga kerakli maslahatlarni bering). Birgalikda mehnat faoliyatini tashkil etish ayniqsa foydali hisoblanadi, unda ota-onalar o'zlarining mehnat qobiliyatlarini ochib berishadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasbga yo'naltirishning asosiy omili ularning og'ishlarining barcha xususiyatlarini hisobga olishdir. Buning uchun mutaxassis muammoni va bolaning kasallik tarixini yaxshi bilishi kerak.



Kasb tanlashda ota-onaliga va oila muhim rol o'ynaydi, bolaning o'zini o'zi belgilashi va jamiyatga moslashishi. Shuning uchun, ular jarayonda ishtirok etishlari kerak. Nogiron bolalar bilan kasbga yo'naltirish ishlari ko'proq individual bo'lishi kerak, guruhga qaraganda.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ularning kelajagini ta'minlash va g'amxo'rlik, shuningdek, mehr-oqibat ramzidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N.Xolmurodova. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik jihatlari. 2022-yil.
2. Jo'rayev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. -T.:FAN. 2004-yil.